Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Подольская Н.В. Словарь русской ономастической термнологии. Москва: Наука, 1988. С. 31.

(2). Суперанская А.В. общая теория имени собственного. Москва, “Наука», 1973.

(3). Dauzat A. Les noms de personnes: origine et évolution. Paris, Librairie Delagrave, 1987.

(4). Begmatov E.A. O‘zbek tili antroponimikasi. Toshkent, 2013.

(5). Maxammadjonovna S.L. (2026). Antroponimlarning jahon tilshunosligida shakllanishi. American journal of education and learning, 4(2), p. 509–513.

Xodjayev Sidiq Axmedovich (FarDU “Adabiyotshunoslik” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); ORCID: 0009-0001-71492132)

QADIMGI YOZUV TIZIMLARINI DESHIFROVKA QILISH MUAMMOLARI: O‘RXUN-ENASOY BITIKLARI VA MAYYA YOZUVI MISOLIDA

Annotatsiya. *Mazkur maqolada qadimgi tamaddunlar yozuv tizimlarining o‘rganilishi, xususan, deshifrovka qilingan va qilinmagan bitiklar haqida so‘z yuritiladi. Tadqiqotda O‘rxun-Enasoy bitiklari va mayya yozuvining kashf etilishi hamda ularning deshifrovka qilinish jarayoni ilmiy jihatdan ko‘rib chiqiladi. Qiyosiy tahlil asosida turli tamaddunlar yozuv madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *O‘rxun-Enasoy bitiklari, mayya yozuvi, qadimgi yozuv tizimlari, deshifrovka, iyeroglif yozuv, runik yozuv, qadimgi tamaddunlar, epigrafika.*

Ходжаев Сидык Ахмедович (ФГУ, литературоведения, доцент, доктор филологических наук (PhD); ORCID: 0009-0001-71492132)

ПРОБЛЕМЫ РАСШИФРОВКИ ДРЕВНИХ СИСТЕМ ПИСЬМА: НА ПРИМЕРЕ ОРХУН-ЕНИСЕЙСКИХ НАДПИСЕЙ И МАЙЯСКОГО ПИСЬМА

Аннотация. *В данной статье идет речь о проблемах изучения письменных систем древних цивилизаций, в частности дешифрованных и недешифрованных письменных памятников. В исследовании анализируется история открытия и процесс дешифровки орхоно-енисейских надписей и письменности майя. Особое внимание отводится их научному значению для лингвистики и культурологии. На основе сравнительного анализа определяются особенности развития письменной культуры различных цивилизаций.*

Ключевые слова: *Орхуно-Енисейские надписи, письменность майя, древние системы письма, дешифровка, иероглифическая письменность, руническое письмо, древние цивилизации, эпиграфика.*

Khodjayev Sidiq Akhmedovich (FSU Associate professor, Doctor of philosophy in philological Sciences (PhD); ORCID: 0009-0001-71492132)

PROBLEMS OF DECIPHERING ANCIENT WRITING SYSTEMS: ON THE EXAMPLE OF THE ORKHUN-ENASOY INSCRIPTIONS AND THE MAYA WRITING

Annotation. *This article examines the study of ancient civilizations, particularly deciphered and undeciphered inscriptions. The research analyzes the discovery and decipherment of the Orkhon-Yenisei inscriptions and the Maya writing system. Special attention is given to their scientific significance in linguistics, history, and cultural studies. Based on a comparative approach, the study reveals distinctive features of the development of writing traditions in different civilizations.*

Keywords: *Orkhon-Yenisei inscriptions, Maya writing system, ancient writing system, decipherment, hieroglyphic writing, runic script, ancient civilizations, epigraphy.*

Kirish. Jahon tamadduni tarixida haligacha o‘z yechimini to‘liq topmagan qator ilmiy muammolar mavjud. Ana shunday dolzarb masalalardan biri ming yillik tarixgi ega bo‘lgan qadimgi sivilizatsiyalarga mansub yozuv tizimlarini o‘qish va ularni ilmiy jihatdan deshifrovka qilish jarayoni hisoblanadi.

XVI asrda yashagan ispaniyalik ruhoniy Diyego de Landa mayya belgilarini “alifbo” deb atagan bo‘lsa, bir necha asrlar davomida olimlar buni xato deb o‘ylaganlar. Rus olimi Knozorov Meksika yoki Gvatemalaga bormasdan, “Drezden kodeksi” nusxalari, de Landa yozib qoldirgan “alifbo” ma’lumotlaridan foydalanib, ularni qayta matematik va mantiqiy tahlil qilgan [1;45–52-b.] va mayya yozuvlari to‘liq alifbo emas, balki. bo‘g‘inli(sillabik) yozuv tizimi, “rasmlar ortida tovush bor” degan g‘oyani ilgari surdi hamda buni “Pismennost indeytsev mayya”, “Iyeroglificheskiye rukopisi mayya” (1963–1975) [2;200–215-b.] kitob-larida va 100 dan ortiq maqolalarida isbotlab berdi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Mayya yozuvi go‘zal va murakkab ko‘rinishga ega edi. Y.Knorozovning kashfiyotlari natijada mayya yozuvi o‘qila boshlangach, butun bir tamaddun “so‘zlay” boshladi. Olimga bunga erishish uchun 20 yilga yaqin vaqt kerak bo‘ldi. U mayya yozuvi shifrini topishda mantiqiy

va tilshunoslik usulidan foydalanib, birinchi bo‘lib mayya belgilari alifbo emas, bo‘g‘inli belgilar bo‘lsa kerak, deb taxmin qilgan va belgilar takrorlanishini hisoblab, tahlilga tortib, ular so‘z emas, tovush birliklari ekanini isbotlagan va nihoyat logogramma + bo‘g‘in belgilari bilan birga ishlatilishini aniqlagan, ularni jadvalga joylashtirgan. 70–80-yillarda dunyo olimlari ham uning zamonaviy lingvistik nazariyasini isbotini topgan fakt sifatida qabul qilishdi.

Uning tomonidan ishlab chiqilgan fonetik-sillabik tahlil usuli asosida mayya yozuvining o‘qish tamoyillari aniqlandi va matnlarning asosiy qismi o‘qib chiqildi, bu o‘z navbatida qadimgi Amerika tamaddunniga oid bo‘lgan tarixiy voqealar, diniy marosimlar, astronomik kuzatishlar va kalendar ma’lumotlarni qayd etish uchun xizmat qildi. Natijada mayya yozuvi ham ilgari deshifrovka qilinmagan yozuvlar qatoridagi ro‘yxatdan chiqarilib, insoniyat tarixini o‘rganishda muhim manba sifatida e’tirof etildi.

Mayya yozuvining deshifrovka qilinishi va O‘rxun-Enasoy bitiklarini o‘qilishi turli tamaddunlar yozuv madaniyatini o‘rganishda muhim ilmiy yutuq hisoblanadi. Ushbu kashfiyotlar natijasida insoniyat tarixi, qadimgi xalqlarning dunyoqarashi, davlatchilik an’analari va madaniy merosi haqida yangi ma’lumotlar ilmiy muomalaga kiritildi. Shu jihatdan, mazkur yozuvlarning o‘rganilishi nafaqat tilshunoslik va tarix fanlari, balki madaniyatshunoslik, arxeologiya va semiotika sohalari uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Natija. Dunyodagi eng mashhur hali deshifrovka qilinmagan 10 ta qadimgi yozuvlar: Hindiston va Pokiston hududlarida joylashgan Ind vodiysi yozuvi (m.o. 2600–1900). Krit orolidagi Linear A. (Minoy yozuvi) (m.o. 1800–1450). Krit orolida joylashgan ikkinchi yozuv Fest diski 1908-yilda topilgan. Pasxa orolida joylashgan Rongorongo yozuvi. Izoh: Pasxa oroli xalqi rapa-nui tilida rongorongo – “qiroat qilib o‘qish”, “ovoz chiqarib o‘qish” degan ma’noni anglatadi. Bu yozuv “bustrofedon” usulida yozilgan bo‘lib, bir qatori chapdan o‘ngga, ikkinchi qatori esa 180 gradus aylantirilgan holda o‘qilgan.

Eronda topilgan Proto-Elam yozuvi (m.o. 3100–2900) Kipr orolida joylashgan Kipr-Minoy yozuvi (m.o. 1500–1000) Bolqon yarim oroli hududidan topilgan Vincha belgilar tizimi (m.o. 5000–4000). Meksikadan topilgan Olmek yozuvi yoki Kaskaxal lavhasi (m.o. 900) Proto-sinay yozuvi Sinay yarim orolidan topilgan bo‘lib, u, taxminan, 1900–1500-yillarga aloqador. Italiyadagi qadimgi tamaddanga tegishli bo‘lib, uning alifbosi deshifrovka qilingan, biroq ma’nosi to‘liq tushunarli bo‘lmagan Etrusk yozuvi.

Qadimgi yozuv tizimlari ichida uzoq vaqt davomida deshifrovka qilinmagan yodgorliklar sifatida qarab kelingan yozuvlardan biri O‘rxun-Enasoy bitiklaridir. Ushbu yodgorliklar VII–VIII asrlarga mansub bo‘lib, asosan, hozirgi Mo‘g‘uliston va Janubiy Sibir hududlarida joylashgan tosh yodgorliklarda saqlangan. 1889-yili rus tadqiqotchisi Nikolay Yadrinsev O‘rxun daryosi vodiysida ushbu bitiklarni ilmiy jamoatchilikka ma’lum qildi [3;13–18-b.]. Keyinchalik, 1893-yili daniyalik tilshunos Vilgelm Tomsen tomonidan yozuv muvaffaqiyatli deshifrovka qilinib, uning qadimgi turkiy tilda bitilganini ilmiy jihatdan asoslab berdi [4;19–25-b.]. Bir yil o‘tib, rus turkologi Vasiliy Radlov mazkur matnlarning ilmiy tarjimasini amalga oshirib, ularni keng ilmiy muomalaga kiritdi [5;140–145-b.].

Shu bilan birga, qadimgi tamaddunlar yozuv tizimlarini o‘rganishda mayya iyerogifik yozuvining deshifrovka qilinishi ham muhim ilmiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Uzoq vaqt mobaynida murakkab va sirli yozuvlar qatoriga kiritilgan mayya iyerogliflarini tadqiq etishda rus lingvisti Yuriy Knorozovning olamshumul kashfiyoti o‘zining hal qiluvchi hissasini qo‘shdi.

Tahlil. Ko‘hna tamaddunlar yozuvini o‘rganish katta ilmiy ahamiyat kasb etadi. Orxun-Enasoy bitiklari va Markaziy Amerikada joylashgan mayya yozuvi o‘rtasida o‘xshash va farqli tomonlarni tahlilga tortish muhim ahamiyatga ega, chunki ular yozuv madaniyatini rivojlantirishda o‘zlarining katta xizmatlarini qo‘shganlar.

O‘rxun-Enasoy bitiklari asosan tosh yodgorliklar va qoyatoshlarga o‘yib yozilgan va XIX oxirlarida ilmiy o‘rganilishi boshlangan, ularda turkiy xalqlarning davlatchilik an’analari, hukmdorlar faoliyati va xalqning ijtimoiy-siyosiy hayoti haqida muhim ma’lumotlar keltirilgan bo‘lsa, mayya yozuvi mutloqo boshqa vaqtda, boshqa sharoitda shakllangan bo‘lib, insoniyat tarixidagi eng murakab yozuv hisoblanadi. Bu yozuv, asosan, tosh stellalar, ibodatxonalar devorlari va olimlar kodekslar deb atagan qo‘lyozmalarda saqlanib qolgan. Bundan tashqari, ular fikus daraxtining po‘stlog‘idan tayyorlangan qog‘ozdan(amate) foydalanib, turli minerallar va o‘simliklardan tayyorlangan, namlikka chidamli qo‘lyozma kitoblar yozishgan, taassufki, ispanlar istilo qilgach, ularning deyarli barchasi yoqib yuborilgan, faqat 4 ta asl kodeks saqlanib qolgan, bular: Drezden kodeksi, Madrid kodeksi, Parij kodeksi va Grolye kodeksi. Ushbu kitoblarda astronomiya, taqvim, diniy marosimlar haqida juda qimmatli ma’lumotlar keltirilgan [3;95–140-b.].

Qiyosiy jihatdan qaraganda, O‘rxun-Enasoy bitiklari va mayya yozuvi o‘rtasida qator o‘xshashliklar va farqli tomonlar bor. Birinchidan, yozuv orqali insoniyat tarixi haqida kengroq ma’lumotga ega bo‘lish mumkin. Ikkinchidan, har ikki yozuv bir necha asrlar davomida deshifrovka qilinmagan eng mashhur qa-

dimgi yozuvlar qatorida bo‘lgan, va hozirga kunda ushbu ro‘yxatdan chiqarilgan. Aytish joizki, ularning tuzilishi va grafik xususiyatlari bir-biridan katta farq qiladi. O‘rxun-Enasoy yozuvi asosan fonetik alifboli tizimda bo‘lsa, mayya yozuvi logografik va sillabik elementlardan iborat bo‘lgan iyerografik tizimdir.

Xulosa. Asli britaniyalik, lekin ilmiy faoliyati, izlanishlarining asosiy qismini AQSHda olib borgan eng taniqli mayyashunos, arxeolog olim Jon Erik Sidney Tompson (1898–1975) va uning shogirdlari mayya yozuvlarini diniy-ramziy va ideografik deb hisoblagan bo‘lsalar, yigirma yildan ortiq vaqt mobaynida mayya yozuvlarini chuqur o‘rgangan, rus olimi Yuriy Knorozov esa ularni fonetik xususiyatga ega ekanligini ilmiy tadqiqotlar asosida isbotlab bergan. O‘z davrining eng mashhur olimi, Tompson mayya tamaddunini o‘rganishga 50 yilga yaqin (1920–1970) vaqtini sarflagan va Markaziy Amerikadagi Gonduras, Meksika, Gvetemala, Beliz kabi davlatlarda ko‘plab arxeologik hududlarda ishlab, stellalar, yozuvlar va iyerogliflardan nusxalar olgan hamda kataloglashtirgan, mayya taqvimlarini o‘rgangan, iyerogliflarni tizimlashtirishga o‘zining katta hissasini qo‘shgan.

Tahlil natijalari shuni ko‘rasatadiki, O‘rxun-Enasoy bitiklari va mayya yozuvlarini deshifrovka qilish muhim ilmiy ko‘rsatkich sifatida baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Юрий Кнорозов. Письменность индейцев майя. Москва, изд. Академии наук, 1963, 662 с.
(2). Юрий Кнорозов. Иероглифические рукописи майя. Л., “Наука”, 1975, 272 с.
(3). Николай Ядринцев. Отчет о путешествии в Орхунскую долину. С–П., 1891, 54 с.
(4). Vilhelm Thomsen. Insciptions de L’Orkhon dechiffrees. Helsingors, Societe Finno-Ougrienne. 1896, 220 с.
(5). Василий Радлов. Древнетюркские надписи Монголии. СПб., 460 с.

Abidova Roxatoy Xudayberganovna (UrDU, f.f.f.d., dotsent; roxatoy.a@urdu.uz)

NUTQIY AKT NAZARIYASI VA UNING PRAGMALINGVISTIK TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada nutqiy akt nazariyasining pragmalingvistik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda nutqiy akt tushunchasi, uning asosiy komponentlari – lokutsiya, illokutsiya va perlokutsiya hamda ularning kommunikativ jarayondagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, nutqiy birliklarning faqat grammatik emas, balki pragmatik jihatdan ham tahlil qilinishi zarurligi asoslab beriladi. Ish natijalari tilning funksional mohiyatini ochib berish hamda samarali muloqot mexanizmlarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *nutqiy akt, pragmalingvistika, lokutsiya, illokutsiya, perlokutsiya, kommunikativ vaziyat, nutq faoliyati, til funksiyasi, pragmatik ma’no, kommunikativ maqsad.*

ТЕОРИЯ РЕЧЕВОГО АКТА И ЕГО ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация. *В данной статье анализируются прагмалингвистические основы теории речевых актов. Рассматриваются понятие речевого акта, его основные компоненты – локуция, иллокуция и перлокуция, а также их роль в коммуникативном процессе. Особое внимание уделяется необходимости анализа языковых единиц не только с грамматической, но и с прагматической точки зрения. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию функциональной природы языка и механизмов эффективной коммуникации.*

Ключевые слова: *речевой акт, прагмалингвистика, локуция, иллокуция, перлокуция, коммуникативная ситуация, речевая деятельность, функция языка, прагматическое значение, коммуникативная цель*

SPEECH ACT THEORY AND ITS PRAGMALINGUISTIC ANALYSIS

Annotation. *This article analyzes the pragmalinguistic foundations of speech act theory. The study examines the concept of speech acts, their main components locution, illocution, and perlocution and their role in the communicative process. It also emphasizes the importance of analyzing linguistic units not only from a grammatical perspective but also from a pragmatic one. The findings contribute to a deeper understanding of the functional nature of language and the mechanisms of effective communication.*

Keywords: *speech act, pragmalinguistics, locution, illocution, perlocution, communicative situation, speech activity, language function, pragmatic meaning, communicative intention.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda tilning faqat strukturaviy jihatlarini emas, balki uning funksional va kommunikativ xususiyatlarini o‘rganishga bo‘lgan e’tibor tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, pragmalingvistika yo‘nalishi doirasida til birliklarining real nutq jarayonidagi qo‘llanishi, ularning so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni shakllantirishdagi roli alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi